

Sh.B. Qurbonov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD),
O‘zbekiston, Chirchiq sh.

Q.O. Daljanov

Berdak nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası
katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Nukus sh.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI VA AHOLI DAROMADLARINING DINAMIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari respublika Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, aholi daromadlari dinamikasi, ish xaqi va pensiya miqdori hududlar bo‘yicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, dinamika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi daromadlari, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqa.

DYNAMICS OF MACROECONOMIC INDICATORS AND POPULATION INCOME OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sh. B. Qurbonov - Associate Professor, Department of Geography, Chirchik State Pedagogical University, PhD in Geographical Sciences (g.f.f.d.), Chirchik, Uzbekistan

Q. O. Daljanov - Senior Lecturer, Department of Economic and Social Geography, Berdakh Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the main macroeconomic indicators of the Republic of Uzbekistan based on data from the National Statistics Committee of the republic. The dynamics of population incomes, wages and pensions by region are also analyzed.

Keywords: macroeconomic indicators, gross domestic product, dynamics, industry, agriculture, population income, wages, pensions and social benefits.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Hattoki 2008-2009 yillarda ro‘y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining o‘sish sur‘atlari bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida eng yuqorilaridan biri bo‘ldi.

O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiy rivojlanishida qator omillarga tayanadi. Xususan, O'zbekiston Markaziy Osiyo doirasida keng tranzit imkoniyatlari xos qulay iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lib, mintaqa davlatlarining o'zaro integratsiyalashuvida juda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, respublikamiz ko'p tarmoqli milliy iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni yaratadigan tabiiy boyliklariga ega. Eng avvalo, davlatimizning mineral-resurs salohiyati alohida e'tiborga loyiq. O'zbekiston hududida jami 120 taga yaqin turdagi foydali qazilmalarning 2700 ta konlari topilgan. Jumladan, O'zbekiston jahon mamlakatlari orasida oltin zaxiralari bo'yicha 4-, uran bo'yicha 7-, molibden bo'yicha 8-, mis bo'yicha 10-o'rinda turadi. Yoqilg'i-energetika resurslari ichida tabiiy gaz eng katta ahamiyatga ega bo'lib, uning zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 14-o'rin egallab turmoqda [4]. Noruda qazilma boyliklarda kaliy tuzlari va fosforitlar bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlaridan birida turadi. Demak, mineral resurslarning ulkan zahiralarini yurtimizda rangli metallurgiya, yoqilg'i, kimyo va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga keng imkoniyatlarni beradi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratuvchi agroiklim resurslariga ega. Vegetatsiya davrining davomiyligi, issiq va quyoshli kunlarning ko'pligi tufayli O'zbekistonda paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik kabi yuqori daromadli dehqonchilik tarmoqlari intensiv ravishda rivojlanmoqda.

Qishloq xo'jaligi asosan sun'iy sug'orish yordamida rivojlanayotganligi sababli, respublikamiz qishloq xo'jaligi suv resurslariga bog'liq. Suv bilan Toshkent, Andijon, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari nisbatan yaxshi darajada ta'minlagan. Shuningdek, davlatimiz g'arbida joylashgan katta qismini cho'llar egallagan Navoiy, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasida bu jihatdan ancha murakkab vaziyat shakllangan. Ammo suv resurslarining ayrim hududlarda yetishmovchiligiga qaramay, O'zbekiston jahon mamlakatlari ichida sug'oriladigan yerlar maydoni bo'yicha 13-o'rinda (FAO tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra) turadi.

O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Respublikamiz aholisi muntazam ravishda o'sib bormoqda. 1990 yilda 20,2 mln kishiga teng bo'lgan respublikamiz aholisi 2024 yilga kelib, 37 mln kishidan oshdi [1].

Qisqa tarixiy davr mobaynida O'zbekiston xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishish, milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, sanoatni rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat, energetika va transport xavfsizligini ta'minlash kabi murakkab vazifalar yechimiga bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli erishdi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning o'zgarish dinamikasida 3 ta davrni ajratish mumkin. Birinchisi 1991-1996 yillarni o'z ichiga olib, iqtisodiy pasayish bilan tavsiflangan. Bu holat, asosan, sobiq Ittifoq doirasidagi hududiy mehnat taqsimoti tizimi, O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari va korxonalarining boshqa respublikalarning xo'jaligi o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarning uzilishi natijasida kelib chiqdi. 1997-2003 yillar oralig'idagi ikkinchi bosqich milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi va YaIM o'sishining boshlanishi davri bo'ldi. O'zbekistonning YaIM ko'rsatkichi 2001-yilda sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bo'lib 1990-yildagi darajasidan oshib ketdi. Uchinchi davr 2004 yilda boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Bu yillar uchun O'zbekiston YaIMning 4,5 foizdan past bo'lmagan sur'atlar bilan o'sishi xosdir [3].

O'zbekiston Respublikasining YaIM hajmi 2024-yil yakunlari bo'yicha 1454573,9 mlrd so'mni tashkil qildi (1-jadval). Bu muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich, 2010-yil holatiga ko'ra, 74042,0 mlrd so'mga teng bo'lgan. Real hisobda, ya'ni doimiy narxlarda olinganda, 2010-2024-yillar oralig'ida respublikamizning YaIM hajmi 19,6 barobar ko'paydi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM)
2010-2024-yillardagi dinamikasi**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar			
		2010	2015	2020	2024

Joriy narxlarda YAIM	mlrd so'm	74042,0	210183,1	668038,0	1454573,9
YAIM o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan	foiz	107,3	107,4	101,6	106,5
Joriy narxlarda aholi jon boshiga YAIM	ming so'm	2592,3	6715,4	19515,0	39131,4
Aholi jon boshiga YAIM o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan	foiz	104,3	105,6	99,6	104,4

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonning aholi jon boshiga hisoblangan YaIM qiymati, 2024-yil yakunlari bo'yicha, 39131,4 ming so'mga teng bo'lgan. 2010-yilda esa bu makroiqtisodiy indikator 2592,3 ming so'mni tashkil qilgan edi. Aholi jon boshiga real YaIM ko'rsatkichi 2010-2024-yillar oralig'ida 15,0 barobar oshdi.

O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 19,2 foiz, sanoat va qurilishning ulushi 33,4 foiz, xizmatlar sohasining ulushi 47,4 foiz, mahsulotlarga sof soliqlarning ulushi 4,7 foizga teng (2024-yil yakunlari bo'yicha). 2010-yilga nisbatan taqqoslaganda, sanoat va qurilishning ulushi ancha o'sgani ko'zga tashlanadi [2].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat YaIMdagi ulushi 2010-2024-yillar oralig'ida 52,5 foizdan 54,3 foizgacha ko'paydi.

2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi
yalpi ichki mahsuloti tarkibi (foizda)**

Iqtisodiy faoliyat turlari	YaIM tarkibidagi ulushi	
	2010-yil	2024-yil
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	28,7	19,2
Sanoat va qurilish	22,6	33,4
Xizmatlar	35,9	47,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	12,8	4,7

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatichlardan biri hisoblangan yalpi sanoat mahsuloti, 2023-yil yakuni bo'yicha, 885,8 trln so'mdan ortiq qiymatga ega bo'lgan. Yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti esa 467,0 trln so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar, 2010-yil holatiga ko'ra, mos ravishda, 38,1 trln so'm va 30,8 trln

so'mga teng bo'lgan. Qurilish ishlari hajmi tegishli davrda 233,8 trln so'm, chakana tovar aylanmasi 403,4 trln so'm, pullik xizmatlar hajmi 818,4 trln so'mni tashkil qilgan.

Investitsiyalar. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ularga ko'mak beruvchi, harakatlantiruvchi kuch bo'lgan investitsiyaning ahamiyati katta. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillardan bittasi – investitsiya faoliyati hisoblanadi. Jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, 2024-yil yakunlari bo'yicha jami 493,7 trln so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yirik moliyalashtirish manbalari qatoriga kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar kiradi (jami investitsiyalarning 32,3 %), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (30,5 %), aholi va korxona mablag'lari (24,1 %) ni kiritish mumkin. Shu bilan birga, respublika byudjetidan asosiy kapitalga jami kiritilgan investitsiyalarning 4,6 % moliyalashtirilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida 2024-yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 231,4 trln so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 46,9 % ini tashkil etgan, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 212,8 trln so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,1 %) va boshqa xarajatlarga 49,5 trln so'm (10,0 %) o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida investitsiyalarning taqsimlanishiga e'tibor qaratilsa, ularning eng katta hajmlari ishlab chiqarish sanoatiga (29,3 %), elektr, gaz bilan ta'minlash (13,9 %), tog'-kon sanoatiga (12,9 %) kiritilgan. Bu borada muhim tendentsiya jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida sanoat ulushining keskin o'sishi bilan bog'liq. Ayniqsa, ko'rilyotgan davrda ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sektoriga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi va ulushi sezilarli darajada o'sdi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga 2024-yilda 34,9 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan. Eng katta miqdordagi investitsiyalar Xitoy Xalq Respublikasi (27,9 %), Rossiya Federatsiyasi (13,2 %) va Turkiya (6,8 %)

tomonidan kiritilgan. Jami chet el investitsiyalarining 35,7 foizi ishlab chiqarish sanoatiga, 19,5 % elektr, gaz bilan ta'minlash jalb qilingan.

O'zbekiston Respublikasida 01.01.2024-yil holatiga ko'ra, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 14871 ta korxonalardan 3965 tasi qo'shma korxonalar va 10906 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Ularning asosiy qismida etakchi o'rinni 3357 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,6 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 19,7 foiz), Turkiya (ulushi 12,3 foiz), Qozog'iston (ulushi 7,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 4,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Tashqi savdo. O'zbekiston Respublikasi jahonning 200 yaqin davlatlari bilan tashqi savdo aloqalarin amalga oshiradi. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, 2024-yil yakunlari bo'yicha, 65,93 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Shu jumladan, eksport hajmi 26,9 mlrd AQSh dollari, import hajmi esa 38,9 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan. Tashqi savdo aylanmasi, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 3,0 barobar ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,9 %), Rossiyada (17,6 %), Qozog'istonda (6,5 %), Turkiyada (4,5 %) va Koreya Respublikasida (3,0 %) qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi eksportining tovar tarkibida, 2024-yil holatiga ko'ra, oltin (27,8 %), xizmatlar (26,7 %), sanoat tovarlari (15,6 %) oziq ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,1 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (4,9 %) yetakchi o'rinlarni egallagan. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,8 %), transport (35,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,6 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (3,5 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (0,9 %), moliyaviy xizmatlar (0,9 %) qurilish xizmatlari (0,5

%) hissasiga to'g'ri keldi [5]. Energiya manbalari eksportida tabiiy gaz, to'qimachilik mahsulotlari eksportida paxtadan yigirilgan ip hamda tayyor kiyimlar, qora va rangli metallar eksportida mis, sink hamda po'lat prokati, oziq-ovqat mahsulotlari eksportida esa meva-sabzavotlar ustuvor ahamiyatga ega.

O'zbekiston eksportining tovar tarkibida 2010-2024 yillar oralig'ida ma'lum darajadagi o'zgarishlar ro'y berdi. Ulardan eng muhimlari sifatida paxta tolasi ulushining keskin pasayishi, to'qimachilik mahsulotlari va xizmatlar ulushlarining ko'tarilishini alohida ajratish o'rinlidir. Mamlakatimiz importining tovar tarkibida, 2024-yil holatiga ko'ra, eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (34,6 %), sanoat tovarlari (15,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,0 %) hisobiga to'g'ri kelgan.

Umuman olganda, 2024- yilda O'zbekiston Respublikasi 172 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirgan. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etgan.

Aholining daromadlari. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar doimiy ravishda oshib borgan va yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mamlakat aholisining turmush darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri aholi daromadlari hisoblanadi.

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi [5].

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda aholi umumiy daromadlari 896,3 trln. so'mni tashkil etgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlari esa 24,1 mln so'mni, real o'sish sur'ati 108,1 % tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval

O'rtacha aholi daromadlari, ish haqi va pensiyalar miqdori

Ko'rsatkichlar	2010-y.	2024-y.
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'mda	2192,8	24111,9
O'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sish, %	120,1	105,9
Yillik o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda	504,8	5357,2
O'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sish, %	129,4	117,4
Belgilangan o'rtacha pensiya miqdori (yil oxiriga) ming so'mda	171,9	1234,5
O'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sish, %	125,9	114,2

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlar (aholi birlamchi daromadlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromatlardan tashkil topadi) 74,0 %, transfertlardan olingan daromadlar (transfertlar – uy xo'jaliklariga boshqa uy xo'jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo'lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.) 26 % tashkil qilgan.

O'z navbatida, birlamchi daromadlarning 35,0 % mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar (mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo'jaligi a'zolari jalb qilingan mehnat jarayoninativasida olingan daromadlar), 27,9 % yollanma ishchilar daromadlari, 7,8 % shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan (bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi) va 3,3 % qismi mol-mulkdan olingan daromatlardan (mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi) iborat.

Ish haqi. Respublikamizda 2024 – yilda o'rtacha oylik ish haqi 5357,2 ming so'mni tashkil qilgan. Ush bu ko'rsatkich 2020 yilda 2673,3 ming so'mga teng bo'lgan yoki o'tgan 5 yil maboynida 2683,9 ming so'mga ortgan.

2024 – yilda mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylikish haqining eng baland ko'rsatkichi – bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to'g'ri kelib, 15 263,7 ming so'mni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda esa, axborot va aloqa sohasi 13157,4 ming so'mni, tashish va

saqlash sohasi 8 113,3 ming so'mni va sanoat sohasi 6 439,9 ming so'mni tashkil etib, o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan. Shuningdek, ta'lim (3 637,0 ming so'm) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3411,0 ming so'm) sohalari esa boshqa sohalarga nisbatan eng quyi pog'onalarda ekanligini ko'rishimiz mumkin [5].

Aksariyat hollarda sanoat ishlab chiqarishida ham o'rtacha oylik ish haqi nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi. Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i (9132,8 ming so'm), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (7471,4 ming so'm) hamda ishlab chiqarish sanoatida (6181,0 ming so'm) ko'rish mumkin.

O'rganilayotgan yilda savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash sohasida (7769,9 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdoda (5 676,4 ming so'm) kuzatilgan.

2024 yilda tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyatiga (9 599,9 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyatiga (3 875,0 ming so'm) to'g'ri kelgan. Shuningdek, axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarda (18 288,6 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa aloqa sohasida (10917,1 ming so'm) kuzatilgan. Ta'lim sohasida oliy ta'limda 8562,1 ming so'm, maktabgacha ta'limda esa 1963,3 ming so'm bo'lgan.

Pensiya va ijtimoiy nafaqa. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikada jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni 4827,3 ming kishini tashkil qilgan yoki har 10000 ta aholiga 1311,8 tadan mos kelgan. Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni 2019-yil bilan taqqoslanganda 948,9 kishiga yoki 24,5 % ko'pagan. Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi aholi soni 2010-yilda oldingi yilga

nisbatan 98,8 %, 2015-yilda 102,7 %, 2020-yilda 103,9 % va 2023-yilda 105,4 foizga ortgan.

Pensionerlarga tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori 2023-yil oxiriga 1234,5 ming so'mni tashkil qilgan, mazkur ko'rsatkich 2015-yilda 438,2 ming so'mni, 2019-yilda esa 733,2 ming so'mni tashkil qilgan. Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizdagi o'zgarishi quyidagicha bo'lgan: 2010-yilda 130,3 %, 2015-yilda 110,0 %, 2020-yilda 117,7 % va 2023-yilda 102,7 foizga o'zgargan.

Umuman olganda, O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning pirovard maqsadi aholi turmush sharoiti va darajasini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni izchil hal qilib borishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami (2020-2021). – Toshkent, 2022. – 292 b.
2. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami (2021-2022). – Toshkent, 2023. – 292 b.
3. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – Toshkent: Universitet, 2014. – 404 b.
4. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 382 b.
5. www.stat.uz [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika ko'mitasining rasmiy veb-sayti].